

---

Deputatlar saylovlarini o'tkazish yuzasidan o'quv seminar o'tkazilmoqda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining tegishli Qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Xalq deputatlari Kengashining deputatlar saylovini o'tkazishga joylarda munosib tayyorgarlik ko'rish maqsadida saylov komissiyasining raisi, rais o'rinbosari va kotiblari uchun o'quv seminar-trening mashg'ulotlari boshlandi.

Bugun Qo'shtepa tumanidagi Ixtisoslashtirilgan maktabda 3 va 4-guruh uchun seminar treninglar boshlandi.

Tadbirda, tuman hokimi Anvarjon Abdullayev ishtirok etdi va ishtirokchilarni bu siyosiy tadbirlarni yuqori darajada tashkil etishda birdek harakat qilish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek tuman rahbari ushbu maktabdagi saylov uchastkasida bo'lib saylovga tayyorgarlik holati bilan ham tanishdi.

2024-09-09 12:20:35